



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI **XABARNOMASI**

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№2/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlarixabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal
Bosh muharrir:
Sattarov Abdusamat
Umurqulovich
Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich
Mas'ul kotib:
Turayev Baxtiyor Ergashevich
Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi № 066379-
raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga
olingan va O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi rayosatining 2025-
yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori
bilan ro'yxatdan o'tkazilgan
hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha
dissertatsiyalarning asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center"
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitiruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegaramamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatratamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasidagi tarixiy voqelik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatdabo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy ahamiyati.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'rni.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K model asosida tashkilot metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida onlayn o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematikata'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasiva uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G'A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J.YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....83

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'ubilig" va "Hibatul-haqoyiq" dostonlarining misolida).....86

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....91

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....96

Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV

Ona-til va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....99

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of advertising translation in advertising texts.....103

A.G.Murodullayeva

O'zbekiston turizmini 2030-yilgacha rivojlantirishda raqamli ekotizimni shakllantirish.....107



"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti magistranti
Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi
Gmail: abilovaguli79@gmail.com
ORCID: 0009-0001-2017-9111

O'ZBEKISTON TURIZMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston turizmini 2030-yilgacha rivojlantirishda raqamli ekotizimni shakllantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Zamonaviy turizmga raqamlashtirish alohida elektron xizmatlarni joriy etishdan yaxlit raqamli ekotizimni shakllantirish bosqichiga o'tmoqda. Tadqiqotda turizm sohasida raqamli platformalar, Big Data, sun'iy intellekt, elektron to'lov tizimlari, raqamli marketing va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, institutsional, qiyosiy va statistik tahlil, kontent-tahlil hamda SWOT-tahlil usullariga asoslangan. O'zbekistonning turizm sohasiga oid strategik hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida raqamli turizm ekotizimining asosiy institutsional subyektlari hamda iqtisodiy mexanizmlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida davlat, turistik biznes, raqamli platformalar, mahalliy hamjamiyat, turistlar va ilmiy-ta'lim muassasalarini yagona tizimga birlashtiruvchi institutsional-iqtisodiy model taklif etilgan. Modelning samarali joriy etilishi turistik xizmatlar eksportini oshirish, kichik biznesni raqamli iqtisodiyotga jalb qilish, turist xarajatlarini ko'paytirish va O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Tayanch so'zlar: raqamli ekotizim, raqamli turizm, institutsional mexanizm, iqtisodiy mexanizm, Smart Tourism, turizm platformasi, Big Data, sun'iy intellekt, turistik biznes, O'zbekiston — 2030.

ФОРМИРОВАНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОСИСТЕМЫ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА УЗБЕКИСТАНА ДО 2030 ГОДА

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются институциональные и экономические механизмы формирования цифровой экосистемы в целях развития туризма Узбекистана до 2030 года. В современном туризме цифровизация переходит от внедрения отдельных электронных услуг к формированию целостной цифровой экосистемы. В исследовании проанализирована экономическая эффективность цифровых платформ, Big Data, искусственного интеллекта, электронных платежных систем, цифрового маркетинга и управления на основе данных в сфере туризма. Методология исследования основана на системном, институциональном, сравнительном и статистическом анализе, контент-анализе и SWOT-анализе. На основе анализа стратегических документов Узбекистана в сфере туризма, отчетов международных организаций и научной литературы определены основные институциональные субъекты и экономические механизмы цифровой туристической экосистемы. В результате исследования предложена институционально-экономическая модель, объединяющая государство, туристический бизнес, цифровые платформы, местные сообщества, туристов, а также научные и образовательные учреждения в единую систему. Эффективная реализация данной модели может способствовать увеличению экспорта туристических услуг, вовлечению малого бизнеса в цифровую экономику, росту расходов туристов и укреплению конкурентоспособности Узбекистана на международном туристическом рынке.

Ключевые слова: цифровая экосистема, цифровой туризм, институциональный механизм, экономический механизм, Smart Tourism, туристическая платформа, Big Data, искусственный интеллект, туристический бизнес, Узбекистан — 2030.

DEVELOPING A DIGITAL ECOSYSTEM FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN BY 2030

ABSTRACT

This article examines the institutional and economic mechanisms for developing a digital ecosystem to advance tourism in Uzbekistan by 2030. In modern tourism, digitalization is shifting from the introduction of individual electronic services toward the development of an integrated digital ecosystem. The study analyzes the economic efficiency of digital platforms, Big Data, artificial intelligence, electronic payment systems, digital marketing, and data-driven management in the tourism sector. The research methodology is based on systematic, institutional, comparative, and statistical analysis, content analysis, and SWOT analysis. Based on an analysis of Uzbekistan's strategic tourism-related documents, reports of international organizations, and academic literature, the study identifies the key institutional stakeholders and economic mechanisms of the digital tourism ecosystem. As a result, an institutional-economic model is proposed that integrates the government, tourism businesses, digital platforms, local communities, tourists, and scientific and educational institutions into a unified system. Effective implementation of the proposed model may contribute to increasing tourism service exports, integrating small businesses into the digital economy, increasing tourist expenditure, and strengthening Uzbekistan's competitiveness mechanism, Smart Tourism, tourism platform, Big Data, artificial intelligence, tourism business, Uzbekistan — in the international tourism market. Keywords: digital ecosystem, digital tourism, institutional mechanism, economic mechanism, Smart Tourism, tourism platform, Big Data, artificial intelligence, tourism business, Uzbekistan — 2030.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida institutsional va biznes jarayonlarining transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Mazkur jarayon turizm sohasida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki zamonaviy turist destinatsiya haqida ma'lumot izlash, turistik mahsulotni tanlash, mehmonxona va transport xizmatlarini bron qilish, to'lovlarni amalga oshirish hamda safar taassurotlarini baholashning katta qismini raqamli muhitda amalga oshirmoqda. Shu sababli turizmni raqamlashtirish endilikda faqat veb-sayt yoki mobil ilova yaratish bilan cheklanmay, turizmning barcha ishtirokchilarini yagona raqamli makonda birlashtiruvchi raqamli ekotizimni shakllantirishni talab qilmoqda [1].

Buhalis va Law turizmni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi turistik xizmatlar, marketing, boshqaruv va iste'molchi xatti-harakatlarida fundamental o'zgarishlarga olib kelganligini qayd etadi [1]. Gretzel va hammualliflar esa Smart Tourism ekotizimini turistik destinatsiya, turistlar, biznes subyektlari va texnologik infratuzilmaning o'zaro bog'langan tizimi

sifatida talqin qiladi [2]. Mazkur yondashuv turizmni rivojlantirishda raqamli platformalar va ma'lumotlar iqtisodiyotining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Raqamli ekotizim konsepsiyasi institutsional nuqtayinazardan ham muhimdir. Chunki turizmni davlat boshqaruvi, xususiyy biznes, texnologik kompaniyalar, transport va mehmonxona korxonalari, madaniy meros muassasalari, mahalliy hamjamiyat va turistlarning manfaatlarini o'zaro kesishadi. Agar mazkur subyektlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi va institutsional hamkorlik mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilmasa, alohida raqamli xizmatlarning mavjudligi ham yaxlit raqamli turizm tizimini yaratmaydi.

OECD tadqiqotlarida ham turizm sektorining raqamli transformatsiyasi kichik va o'rta biznesning raqamli texnologiyalardan foydalanishi, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, ma'lumotlardan foydalanish va davlat siyosatini modernizatsiya qilish bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi [3]. Demak, raqamli transformatsiya nafaqat texnologik, balki institutsional va iqtisodiy jarayon ham hisoblanadi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan

biri hisoblanadi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirish, xizmatlar eksportini ko'paytirish, xorijiy va ichki turistlar oqimini kengaytirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan [4]. Ushbu strategik maqsadlarning amalga oshirilishi turizm sohasining raqamli boshqaruvini kuchaytirishni talab qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda turizm sohasida turli raqamli xizmatlar va platformalar rivojlanayotgan bo'lsa-da, ularni davlat boshqaruvi, xususi biznes, turistlar va boshqa manfaatdor tomonlarni birlashtiruvchi yagona raqamli ekotizimga integratsiya qilish masalasi yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston turizmini 2030-yilgacha rivojlantirish sharoitida raqamli ekotizimni shakllantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini aniqlash hamda ularning o'zaro integratsiyasiga asoslangan modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekiston turizm sektori uchun davlat, biznes, raqamli platformalar, turistlar, mahalliy hamjamiyat va ilmiy-ta'lim muassasalarining o'zaro aloqalarini iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari bilan birlashtiruvchi institutsional-raqamli ekotizim modelining taklif etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda turizmning raqamli transformatsiyasini institutsional va iqtisodiy nuqtayi nazardan kompleks o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Birinchi, tizimli yondashuv asosida turizmning raqamli ekotizimi o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yagona tizim sifatida qaraldi. Ushbu yondashuv orqali davlat organlari, turistik biznes, raqamli platformalar, turistlar, mahalliy hamjamiyat va ta'lim muassasalari o'rtasidagi funksional aloqalar o'rganildi.

Ikkinchi, institutsional tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod yordamida davlat tomonidan turizm sohasini tartibga solish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish, ma'lumotlar almashinuvi, xususi sektorni

qo'llab-quvvatlash va davlat-xususi sheriklik mexanizmlari tahlil qilindi.

Uchinchi, qiyosiy tahlil metodi orqali O'zbekistonning turizmni raqamlashtirish tajribasi xalqaro Smart Tourism va digital tourism ekotizimlari bilan taqqoslandi. Bunda Gretzel et al. [2], OECD [3] va UN Tourism [5] tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va amaliy yondashuvlardan foydalanildi.

To'rtinchi, kontent-tahlil yordamida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, turizmga oid Prezident farmon va qarorlari, turizmni rivojlantirishga oid davlat dasturlari hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o'rganildi. Hujjatlarda "digitalization", "platform economy", "tourism services", "innovation", "investment", "data governance" kabi mazmuniy kategoriyalar ajratib olindi.

Beshinchi, deskriptiv-statistik tahlil yordamida turizm sektorining rivojlanish dinamikasi, turistlar oqimi, turizm xizmatlari eksporti va raqamli xizmatlarning iqtisodiy ahamiyati umumlashtirildi. Ushbu metod sabab-oqibat munosabatlarini ekonometrik jihatdan isbotlash uchun emas, balki mavjud tendensiyalarni aniqlash va transformatsion model uchun dastlabki indikatorlarni shakllantirish maqsadida qo'llanildi.

Oltinchi, SWOT-tahlil orqali raqamli turizm ekotizimini shakllantirishning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar va potensial tahdidlar aniqlandi.

Yettinchi, funksional modellashtirish metodi asosida turizm raqamli ekotizimining asosiy subyektlari va ularning funksiyalari o'zaro bog'langan model ko'rinishida umumlashtirildi.

Mazkur metodlarning kompleks qo'llanilishi raqamli ekotizimni faqat texnologik hodisa sifatida emas, balki institutsional boshqaruv va iqtisodiy manfaatlar tizimi sifatida o'rganish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda turizmning raqamli ekotizimini shakllantirish uchun oltita asosiy institutsional subyektning o'zaro hamkorligi zarurligini ko'rsatdi. Bular: davlat, turistik biznes, raqamli platformalar, turistlar, mahalliy hamjamiyat va ilmiy-ta'lim

muassasalari.

Davlat raqamli ekotizimning institutsional asoslarini yaratadi. Uning asosiy funksiyalariga raqamli standartlarni belgilash, ma'lumotlarni boshqarish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va xususiy sektorni rag'batlantirish kiradi.

Turistik biznes esa raqamli ekotizimning iqtisodiy faol ishtirokchisi sifatida xizmatlarni ishlab chiqadi va raqamli platformalardan foydalanadi. Ayniqsa, kichik va o'rta mehmonxonalar, restoranlar, turistik operatorlar va gidlarning raqamli platformalarga integratsiyasi muhim hisoblanadi.

Raqamli platformalar turist va xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'rtasidagi vositachilik funksiyasini bajaradi. Ular bron qilish, to'lov, navigatsiya, reklama, sharhlar va personalizatsiyalashgan xizmatlarni yagona muhitda birlashtirishi mumkin.

Turistlar esa ekotizimning iste'molchisi bo'lish bilan birga, uning muhim ma'lumot ishlab chiqaruvchi subyekti hamdir. Turistlarning qidiruvlari, xaridlar, tashrif buyurilgan joylar, sharhlar va raqamli xatti-harakatlari turizm talabini prognozlash uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi [2].

Mahalliy hamjamiyatlar turizm ekotizimining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Mahalliy tadbirkorlar va hunarmandlarni raqamli platformalarga jalb qilish turizm daromadlarining hududlarda qolishiga yordam beradi.

Ilmiy-ta'lim muassasalari esa raqamli kadrlar tayyorlash, turizm ma'lumotlarini tahlil qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish vazifalarini bajarishi lozim.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli ekotizimning samaradorligi uning alohida ishtirokchilarining faoliyatidan ko'ra ular o'rtasidagi iqtisodiy va axborot almashinuvi darajasiga ko'proq bog'liq.

Raqamli ekotizimning institutsional mexanizmlari. O'zbekistonda raqamli turizm ekotizimini shakllantirishda birinchi navbatda yagona ma'lumotlar almashinuvi tizimini yaratish zarur. Mazkur tizimda

1-jadval.

O'zbekiston turizmining raqamli ekotizimida institutsional subyektlar va iqtisodiy mexanizmlar¹

Institutsional subyekt	Asosiy funksiyasi	Iqtisodiy mexanizm	Kutilayotgan natija
Davlat	Tartibga solish va standartlashtirish	Subsidiyalar, imtiyozlari, PPP	Raqamli infratuzilma rivoji
Turistik biznes	Xizmatlarni raqamlashtirish	Investitsiya, kredit, platforma komissiyasi	Xizmatlar samaradorligi
Raqamli platformalar	Turist va biznesni bog'lash	Komissiya, reklama, data services	Bozor tranzaksiyalarining o'sishi
Turistlar	Talab va ma'lumot manbai	Elektron to'lov, raqamli xarid	Turistik xarajatlarning oshishi
Mahalliy hamjamiyat	Mahalliy turistik mahsulot yaratish	Mikrofinans, grantlar, e-commerce	Hududiy daromad va bandlik
Universitetlar	Kadr innovatsiyalar	Ilmiy grantlar, PPP, startaplar	Raqamli inson kapitali

obyektlar, mehmonxonalar, transport, gidlar, restoranlar, muzeylar, tadbirlar va turistik oqimlar haqidagi ma'lumotlar birlashtirilishi mumkin.

Ikkinchi mexanizm — davlat-xususiy sheriklik. Raqamli infratuzilmani yaratish davlat mablag'lari bilangina cheklanmasligi kerak. Texnologik kompaniyalar, banklar, telekommunikatsiya operatorlari va turistik biznes bilan hamkorlik qilish zarur.

Uchinchi mexanizm — raqamli standartlashtirish. Turizm korxonalarining raqamli xizmatlari uchun yagona API, elektron to'lov, bronlash, ma'lumot almashinuvi va kiberxavfsizlik standartlarini ishlab chiqish ekotizimning o'zaro mosligini ta'minlaydi.

To'rtinchi mexanizm — ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv. Turizm bo'yicha qarorlar faqat an'anaviy statistik hisobotlarga emas, balki real vaqt rejimidagi raqamli ma'lumotlarga asoslanishi lozim.

Iqtisodiy mexanizmlar. Raqamli ekotizimni shakllantirish uchun iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari ham muhim.

Birinchi, turistik korxonalar uchun raqamli texnologiyalarni sotib olishga imtiyozli kreditlar ajratilishi mumkin.

Ikkinchi, raqamli transformatsiyaga investitsiya qiluvchi turizm korxonalariga soliq rag'batlari berish mexanizmini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchi, innovatsion turizm startaplari uchun grant va venchur moliyalashtirish tizimini kengaytirish zarur.

To'rtinchi, mahalliy hunarmandlar, oilaviy mehmon uylari va kichik turistik bizneslarni elektron tijorat platformalariga jalb

1. **Manba:** Muallif tomonidan [2–6] manbalar asosida ishlab chiqilgan.

qilish orqali ularning bozor imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Beshinchidan, raqamli turist kartasini joriy qilish istiqbolli iqtisodiy mexanizmlardan biri bo'lishi mumkin. Bunday karta transport, muzey, mehmonxona, restoran va boshqa xizmatlarni yagona to'lov tizimiga birlashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston uchun taklif etilayotgan raqamli ekotizim modeli. Tadqiqot natijasida "Uzbekistan Smart Tourism Ecosystem — 2030" konseptual modeli taklif etildi. Model quyidagi besh bosqichdan iborat:

1. Digital Infrastructure — raqamli infratuzilma.

2. Integrated Tourism Platform — turistik xizmatlarning yagona raqamli platformasi.

3. Data-Driven Tourism — Big Data va AI asosida turizmni boshqarish.

4. Digital Business Ecosystem — turistik biznes va mahalliy tadbirkorlarni raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish.

5. Smart Governance — davlat boshqaruvi va raqamli turizm xizmatlarini yagona tizimga birlashtirish.

Mazkur modelning markazida turist turadi. Chunki raqamli ekotizimning yakuniy maqsadi texnologiyani joriy qilish emas, balki turist uchun qulay, tezkor, xavfsiz va personalizatsiyalashgan xizmatlar yaratishdan iborat.

OECD tomonidan ham turizmning raqamli transformatsiyasida kichik biznesning raqamli vositalarga kirishini kengaytirish, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va davlat ma'lumotlaridan samarali foydalanish muhim yo'nalish sifatida ko'rsatilgan [3].

Shu sababli O'zbekiston sharoitida raqamli ekotizimning iqtisodiy samaradorligini quyidagi umumiy mantiqiy zanjir orqali ifodalash mumkin:

- Raqamli infratuzilma
- Raqamli platforma
- Ma'lumotlar
- Personalizatsiya
- Turist xarajatlari
- Biznes daromadi
- Soliq tushumlari
- Turizm investitsiyalari.

Mazkur zanjir raqamlashtirishning turizm sektoridagi bevosita va bilvosita iqtisodiy

ta'sirlarini tushuntiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O'zbekiston turizmni 2030-yilgacha rivojlantirishda raqamli ekotizimni shakllantirish texnologik masala bo'lish bilan birga, institutsional va iqtisodiy transformatsiya jarayoni ekanligini ko'rsatdi.

Raqamli ekotizimning samarali ishlashi davlat, turistik biznes, raqamli platformalar, turistlar, mahalliy hamjamiyat va ilmiy-ta'lim muassasalarining yagona tizimda o'zaro hamkorligiga bog'liq. Shu asosda maqolada davlat-xususiy sheriklik, raqamli standartlashtirish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, imtiyozli moliyalashtirish, soliq rag'batlari, startaplarni qo'llab-quvvatlash va raqamli turist kartasi kabi mexanizmlar taklif qilindi.

O'zbekiston uchun "Uzbekistan Smart Tourism Ecosystem — 2030" modeli raqamli infratuzilma, integratsiyalashgan turistik platforma, Big Data va AI, raqamli biznes ekotizimi hamda Smart Governance komponentlarini o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq.

Amaliy jihatdan, birinchi navbatda turistik obyektlar va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni birlashtiruvchi yagona milliy turizm ma'lumotlar platformasini shakllantirish, turistik biznesni ushbu platformaga bosqichma-bosqich integratsiya qilish va ochiq ma'lumotlar standartlarini joriy etish zarur.

Shuningdek, kichik va o'rta turizm bizneslari uchun raqamli texnologiyalarni sotib olishga imtiyozli kreditlar, innovatsion startaplar uchun grantlar, raqamli transformatsiyaga investitsiya qiluvchi korxonalar uchun iqtisodiy rag'batlar mexanizmini kuchaytirish tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar doirasida O'zbekiston hududlari bo'yicha "Digital Tourism Readiness Index"ni ishlab chiqish, turizm korxonalarining raqamli yetuklik darajasini o'lchash, raqamli platformalarning turistik xarajatlarga ta'sirini ekonometrik baholash va turistlarning raqamli xizmatlardan qoniqish darajasini empirik tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, kelgusida Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent misolida hududiy raqamli turizm ekotizimlarining iqtisodiy samaradorligini qiyosiy baholash mumkin. Bu O'zbekistonning 2030-yilgacha turizmni

rivojlantirish strategiyasini aniq indikatorlar va raqamli boshqaruv mexanizmlari bilan ta'minlash imkonini beradi.

Umuman olganda, O'zbekiston turizmining kelajakdagi raqobatbardoshligi turistlar sonining o'sishidan tashqari, turistik xizmatlarning raqamli integratsiyasi, institutsional muvofiqlashtirish va iqtisodiy samaradorligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan raqamli ekotizimni shakllantirish O'zbekistonning 2030-yilgacha turizm sohasidagi strategik maqsadlarini amalga oshirishning muhim institutsional-iqtisodiy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buhalis D., Law R. Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet — The state of eTourism research // *Tourism Management*. — 2008. — Vol. 29, No. 4. — P. 609–623.
2. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // *Electronic Markets*. — 2015. — Vol. 25. — P. 179–188.
3. OECD. *OECD Tourism Trends and Policies 2024*. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 320 p.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida: PF-158-son Farmon, 11.09.2023. — Toshkent, 2023.
5. UNWTO. *Tourism and the Sustainable Development Goals — Journey to 2030*. — Madrid: World Tourism Organization, 2018. — 118 p.
6. Gretzel U., Werthner H., Koo C., Lamsfus C. Conceptual foundations for understanding smart tourism ecosystems // *Computers in Human Behavior*. — 2015. — Vol. 50. — P. 558–563.
7. Buhalis D., Amaranggana A. Smart tourism destinations // *Information and Communication Technologies in Tourism 2015*. — Cham: Springer, 2015. — P. 377–389.
8. Xiang Z., Fesenmaier D.R. *Analytics in Tourism Design: Information Technology and Tourism*. — Cham: Springer, 2017. — 280 p.
9. World Tourism Organization. *Measuring the Sustainability of Tourism: Developing a Statistical Framework for Sustainable Tourism*. — Madrid: UNWTO, 2023. — 120 p.
10. Del Vecchio P., Mele G., Ndou V., Secundo G. Open innovation and social big data for sustainability: evidence from the tourism sector // *Sustainability*. — 2018. — Vol. 10, No. 2. — P. 1–18.
11. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha statistik va tahliliy ma'lumotlar. — Toshkent, 2025–2026. — Elektron resurs. <https://gov.uz/oz/uzbektourism/sections/statistika>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'zni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida": O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni. — Toshkent, 2025. — Elektron resurs. <https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/55402>

